



PARANTEZ BIRLIKLARNING GAP VA MATNDAGI MUNOSABATI

Fayzulloev Farrux Ixtiyor o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7996953>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Parantez biliklar, kirish so'z, kirish birikma, kiritma, kiritma gap, lingvopoetik tahlil, gorizontal va vertikal munosabat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada parantez birliklarning gap va matndagi munosabati haqida gap boradi. Biz maqolamizni yozishda badiiy matnlarni lingvopoetik tahlil qilish metodini asos qilib oldik. Aytish joizki, badiiy matnlarda qo'llaniladigan parantez birliklar asarlarning mazmunini ochib berishda ma'lum darajada ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti borgan sari ildamlamoqda. Fanlararo yangi sohalar paydo bo'lib, ilm-fanning yanada rivoj topishiga sabab bo'lmoqda. Aynan shu holat tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Tilshunoslik sohasida ham yangidan-yangi fan yo'nalishlari paydo bo'lib, bu lingvistik faoliyatning yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Bu sohada ko'plab ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan uning ayrim jihatlariga ahamiyat berilmagan desak mubolag'a qilmagan bo'lar edik. Shunday jihatlardan biri – parantez birliklarni o'rganish hisoblanadi. Biz siz bilan ushbu maqolamizda lingvistik jihatdan parantez birliklarni gap va matndagi munosabatini ko'rib chiqamiz.

Kirish va kiritmalar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida parantezalarning so'z, birikma, gap, murakkab butunlik, tinish belgilari shaklidagi turlari mavjud ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Parantezalarning mazkur turlari esa aksariyat ishlarda, asosan, o'zlari mansub bo'lgan muayyan bir gap doirasida o'rganiladi va parantezalar bilan mazkur gap o'rtasida sintaktik aloqaning yo'qligi yoki qisman mavjudligi turli shakllarda ta'kidlanadi. Paranteza va u kirgan gap orasidagi semantik-grammatik, mantiqiy-shakliy yoki umuman, qandaydir aloqa gap doirasidan tashqariga chiqmagan holda izlanadi. Holbuki, parantezaning haqiqiy sintaktik, kommunikativ, mantiqiy, lingvopoetik mohiyatini gapdan tashqariga chiqmasdan turib tahlil qilish amrimahol. Birgina misol, aytaylik, *Demak, mehmonlar ertaga keladi* gapi tarkibidagi *demak* parantezasining ma'nosi faqat shu gap doirasida tushunarli emas, shubhasiz, bu gapdan oldin, masalan, *Dovon yo'li bugun yopiq ekan yoki Mehmonlar bugun band ekan* kabi yoki yana boshqa qandaydir gaplar bo'lishi lozim. Shundagina mazkur paranteza o'z semantikasini namoyon qiladi, ayni paytda faqat muayyan mazmunningina emas, balki gaplar o'rtasidagi bog'lanishlarning ham ifodachisi, demakki, matn shakllanishining ham o'ziga xos unsuri ekanligi ko'rinadi.



Muayyan gaplarning bog'lanishliligi asosida yuzaga keladigan yaxlitlik matnning muhim belgisi ekanligi dunyo tilshunosligida ko'p bor e'tirof qilingan.^[1] Har qanday so'zning ma'nosi aniq bir kontekstda reallik kasb etgani kabi gap ham o'zining chin mazmunini boshqa gaplar bilan munosabatda xolis reallashtira olishini ta'kidlar ekan, **M.Yo'ldoshev** nemis tilshunosi **K.Boostning** matndagi gaplar o'rtasidagi munosabat haqidagi quyidagicha mulohazasini keltiradi: *"Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko'p va shunday pishiq to'rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to'r sifatida o'rib to'qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog'langan."*^[2]

Biz matnni sinchikovlik bilan tahlil etmas ekanmiz nafaqat gap, balki gaplarga kiritilgan parantezalarni ham matn doirasida ish ko'rmasdan turib, xolis baholash, ularning semantik, struktur va lingvopoetik qimmatini belgilash mushkul. Hozircha birgina misolga murojaat etaylik: *Nuqul dohiylarni davolagan (**Chingizxonu Napoleondan bo'lak - afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi!**) zot uning oyoqlarini juftlab qayish bilan chandib tortadiyu karavot adog'idagi nimagadir qistirib qo'yadi (E.A'zam, "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi).* O'tkir kinoya bilan yozilgan asardan olingan misoldagi **Chingizxon-u Napoleondan bo'lak - afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi** parantezasi ayni gap doirasida o'zining to'liq ma'nosini reallashtira olgan emas. Bu parantezaning semantik-struktur, mantiqiy va badiiy-estetik mohiyatini anglash uchun kengroq matnga murojaat qilish lozim. Xususan, bir necha abzats oldingi quyidagi parcha bilan aloqalantirilganda mazkur parantezaning maqsadi oydinlashadi: *Tilmochning ma'lumot berishicha, quriyacha salom bilan hindiycha salomni chalkashtirgan bu zot Kim Ir Senning xolavachchasi emish, vaqti-zamonida Chan Kayshini, Mao Szedunni, hatto Stalinni davolagan. Hitlerni ham davolamoqchi bo'lgan-u, samolyotga patta topolmagan. Qo'li rosa yengil, o'zini Ibn Sinoning shogirdi sanaydi...*

Bu o'rinda ayni matn misolida yana ikki xususga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, matn doirasida gaplarning o'zaro bog'lanishida, shuningdek, parantezalarning asosiy - kirituvchi gap bilan (umuman, boshqa gaplar bilan ham) bog'lanishida **gorizontal va vertikal munosabatlarni** farqlash tilshunoslikda ancha keng tarqalgan. Parantez birliklarning matn bloklarini shakllantirishdagi ishtiroki, ya'ni ularning gaplar orasidagi ham gorizontal, ham vertikal aloqadorlik mavjudligining ko'rsatkichlari bo'lishini hisobga olgan holda parantezalarning matndagi ahamiyatining nechog'lik katta ekanligi ta'kidlanadi. Yuqorida keltirilgan *Chingizxonu Napoleondan bo'lak - afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi* shaklidagi paranteza asosiy-kirituvchi gapda eganing aniqlovchisi vazifasida kelgan *nuqul dohiylarni davolagan* birikmasi bilan gorizontal munosabatda, matnda bir necha abzats oldin kelgan *Tilmochning ma'lumot berishicha, quriyacha salom bilan hindiycha salomni chalkashtirgan bu zot Kim Ir Senning xolavachchasi emish, vaqti-zamonida Chan Kayshini, Mao Szedunni, hatto Stalinni davolagan. Hitlerni ham davolamoqchi bo'lgan-u, samolyotga patta topolmagan. Qo'li rosa yengil, o'zini Ibn Sinoning shogirdi sanaydi...* parchasi bilan esa vertikal munosabatdadir. Parantez birliklar tadqiqida mazkur ikki munosabat turi ham inobatga olinishi lozim. Alohida aytish joizki, bunday munosabatlar, ayniqsa, badiiy matnda favqulodda diqqatga sazovor.

Parantez birliklarning matndagi vertikal aloqalari oldingi kontekst bilan ham (bu holat kengroq tarqalgan), keyingi kontekst bilan ham bo'laverishi mumkin. Yuqorida keltirilgan



Chingizxonu Napoleondan bo'lak – afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi parantezasi oldingi kontekstdagi tegishli parcha bilan va ayni paytda besh-olti abzats keyin kelgan quyidagi parcha bilan vertikal aloqaga ega: *Shu ishlarni chiroqni yoqib yoki qo'lidagi shamni bir chekkaga qo'yibgina qilsa bo'lmasmikin, degan o'y tinchlik bermaydi jafokashga. Jafokor esa beparvo, bilganidan qolmaydi. Axir, u – Kim Ir Senning xolavachchasi, kimsan – Chan Kayshi, Mao Szedun, Stalinlarni davolagan zot! Qolaversa, Ibn Sinoning muxlisi, Roziyning bo'lajak shogirdi!..*

Ikkinchi bir xusus shundan iboratki, paranteza va u kirgan gap o'rtasida ko'p hollarda (ayniqsa, paranteza gap va undan katta birlik shaklida bo'lganda) farqli kommunikativ perspektivaning, ya'ni farqli fikriy yo'nalishning mavjud bo'lishidir. Paranteza o'zi kirgan jumla tarkibida ikki xil yo'nalishdagi mazmuniy-kommunikativ planlarning ifodalanishiga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, paranteza bir nuqtai nazardagi fikrni, asosiy gap esa boshqa nuqtai nazardagi fikrni ifodalaydi, ana shunday ikki farqli kommunikativ yo'nalishdagi fikr ifodasi bir gap yoki matn doirasida birlashadi, jamlanadi. Bu o'rinda parantezalarning matn shakllantiruvchilik xususiyati yana bir karra namoyon bo'ladi. Yuqorida tahlil qilganimiz, *Nuqul dohiylarni davolagan (Chingizxonu Napoleondan bo'lak – afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi!)* zot uning oyoqlarini juftlab qayish bilan chandib tortadiyu karavot adog'idagi nimagadir qistirib qo'yadi. **(E.A'zam, "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi)** shaklidagi parantezali gapga diqqat qilinsa, bu holatni aniq ko'rish mumkin. Asosiy gapda, ya'ni *Nuqul dohiylarni davolagan zot uning oyoqlarini juftlab qayish bilan chandib tortadiyu karavot adog'idagi nimagadir qistirib qo'yadi* jumlasidagi kommunikativ yo'nalish boshqa – u boshqa odamga tegishli, bu jumla ichidagi *Chingizxonu Napoleondan bo'lak – afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi!* parantezasida ifodalangan fikr yo'nalishi esa asosiy gapdagidan farqli, ya'ni bu fikr endi boshqa subyektga tegishli. Parantezali gaplardagi bunday imkoniyat, ya'ni murakkab mazmundan tashqari turli nuqtai nazarlarni jamlash imkoniyati badiiyligni ifodalash, lingvopoetika uchun benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini aytish lozim.

Kirish va kiritmalar o'rtasida sintaktik-pozitsion va intonatsion farqlar mavjud bo'lsa-da, ularni farqlashga asos bo'ladigan omil, asosan, semantik omildir. Oz miqdordagi istisnolarni hisobga olmaganda, kiritmalar, asosan, diktum (obyektiv mazmun) ifodalaydi, kirishlar esa modus (subyektiv mazmun) xarakterida bo'ladi. Ammo kiritmalarning ham ba'zan badiiy matnda subyektiv munosabatni ifodalashini, bu holat poetika uchun muhim ekanligini e'tibordan tamoman soqit qilib bo'lmaydi.

Parantezalarni gap ichida emas, balki matn ichida o'rganish xolis xulosalarga olib kelishi mumkin. Parantezalarning ayrim ko'rinishlari gap ichiga emas, balki yaxlit kontekstga, matn ichiga kiradi. Buning ustiga, xuddi gaplar kabi parantezalarning ham struktur-sintaktik, kommunikativ va lingvopoetik mohiyati matnda aniq namoyon bo'ladi.

Parantezalar ekspressiv sintaksisdagi badiiy matnning ta'sirchanligi, badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiradigan birliklari qatoridagi eng muhim vositalardandir.

References:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: "Noshir" 2019.



2. Журнал “Интернаука” – Narziyev Navro‘z – “Paraantez birliklarning tarjimada tutgan o‘rni” - 2020-yil
3. "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" jurnali - Sayyora Sodaliyeva Oqiljon qizi – “Ilmiy matnda so‘z-kiritmalarning ifodalanishi” – 2020-yil
4. Jamoliddinova. “Badiiy nutqda parantez (kirish va kiritma) birliklarning grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” – T. 2009
5. Erkin A'zam – Pakananing oshiq ko‘ngli (qissa)
6. Юлдашев М.М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2009. –Б. 14.
7. Ёлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. –Б. 32 -33.